



2018 YIL YANVAR-DEKABR QURILISH ISHLARI



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **2682,7** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,6 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan **256,4** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **82,4 %** ni tashkil etdi. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari **1432,9** mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **113,3 %** ni tashkil etdi. Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga **993,3** mlrd.so'm qurilish ishlari to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **114,0 %** ni tashkli etdi.

Qurilish ishlarining jami hajmdagi ulushi (fozida)




Joriy yilda jami qurilish ishlarining yirik korxonalardagi ulushi **9,6 %** ni tashkil qildi.

kichik korxona va mikrofirmalar jami qurilish hajmidagi ulushi **53,4 %** ni tashkil qildi.

Norasmiy sektorlarni jami qurilish hajmidagi ulushi **37,0 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan ulushi (%)



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmining **9,6 %** i yirik pudrat tashkilotlari hissasiga tog'ri kelmoqda. Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, "Qo'qon neft gaz parmalash" korxonasi tomonidan bajarilgan va jami qurilish ishlari hajmining **3,0 %** ni tashkil etdi.

Hududda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan salmoqli qurilish ishlari bajarildi va ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi hududdagi jami qurilish ishlarining **53,4 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek norasmiy sektorlar hissasiga qurilish ishlari hajmining **37,0 %** i to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

Nº	Shahar tumanlar	2017 yil yanvar-dekabr (mlrd.so 'm)	2018 yil yanvar-dekabr (mlrd.so 'm)	O'tgan yilga nisbatan foizi (%)	Jamiga nisbatan ulushi (foizda %)
Viloyat jami:		1 969,5	2 682,7	109,6	100,0
1	Farg'ona shahar	452,9	546,1	97,7	20,4
2	Qo'qon shahar	222,1	313,9	114,3	11,7
3	Quvasoy shahar	149,5	180,5	97,7	6,7
4	Marg'ilon shahar	131,2	162,9	100,0	6,1
5	Oltiariq tumani	45,6	73,4	128,8	2,7
6	Qo'shtepa tumani	62,6	142,0	180,8	5,3
7	Bag'dod tumani	132,2	151,2	92,7	5,6
8	Buvayda tumani	48,2	81,8	134,7	3,0
9	Beshariq tumani	56,2	100,1	141,9	3,7
10	Quva tumani	109,3	126,6	93,6	4,7
11	Uchko'prik tumani	84,0	113,3	108,8	4,2
12	Rishton tumani	52,1	57,9	89,2	2,2
13	So'x tumani	35,5	40,0	90,6	1,5
14	Toshloq tumani	55,3	102,7	149,3	3,8
15	O'zbekiston tumani	45,6	51,6	90,8	1,9
16	Farg'ona tumani	107,4	192,1	142,1	7,2
17	Dang'ara tumani	90,5	120,4	106,3	4,5
18	Furqat tumani	42,6	83,9	156,2	3,1
19	Yozyovon tumani	46,9	42,2	72,3	1,6


Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

Viloyatda joriy yilning yanvar-dekabr holatiga qurilish ishlari hajmi jami **2682,7** mlrd.so'm bo'lib, huddi shu ko'rsatkich o'tgan yilda **1969,5** mlrd.so'mni tashkil etgan. Jami qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,6 %** ga o'sdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi. Xususan, Qo'qon shahrida **313,9** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **114,3 %** ga o'sdi. Qo'shtepa tumanida **142,0** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **180,8 %** ga o'sdi. Oltiariq tumanida **74,4** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **128,8 %** ga o'sdi. Buvayda tumanida **81,8** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **134,7 %** ga o'sdi. Beshariq tumanida **100,1** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **141,9 %** ga o'sdi. Farg'ona tumanida **192,1** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **142,1 %** ga o'sdi. Furqat tumanida **83,9** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **156,2 %** ga o'sdi.



Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi **2 139,8 mlrd.so'mni** tashkil qilib, jami qurilish ishlarini hajmining **79,8 %** ni tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlarini hajmi joriy davrda **173,1 mlrd.so'mni** tashkil etib, jami qurilish ishlarini hajmining **6,4 %** ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini hissasiga esa jami **369,8 mlrd.so'm** to'g'ri kelib, jami qurilish ishlarini hajmning **13,8 %** ni tashkil qildi.

2018-yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlaringin mulkchilik shakli bo'yicha tarkibi



Nodavlat tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2624,7** mlrd.so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **97,8** % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **111,8** %ni tashkil etdi.

Davlat tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **58,0** mlrd.so'mni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **2,2** % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **57,8** %ni tashkil etdi.



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
“Investitsiyalar va qurilish statistikasi”
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: M. Valiyeva
Aloqa telefoni: (0373) 241-72-75